



## O‘ZBEK TILINI MUSTAQIL O‘RGANISH UCHUN O‘QUV TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQUISHNING LINGVODIDAKTIK AHAMIYATI

*Yusupov Azat Ataxanovich,  
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq  
davlat universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** maqolada o‘zbek tilini mustaqil o‘rganuvchi talabalar, xorijliklar uchun o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘rganuvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, baholashga va ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv topshiriqlar tizimini yaratish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil ta’lim, mustaqil o‘rganish, o‘quv topshiriqlar, o‘qitish metodikasi, savollar, mashqlar, topshiriq va baholash testlari

**Аннотация:** в статье отражены вопросы создания учебно-методической поддержки для студентов, иностранцев, изучающих узбекский язык самостоятельно, разработки научно-методических основ оценки знаний, умений и навыков, приобретаемых обучающимися, создания системы учебных заданий, которая служит для оценки и развития навыков.

**Ключевые слова:** Независимое образование, углубленное обучение, учебные задания, методика преподавания, вопросы, упражнения, тесты для выполнения заданий и оценки

**Abstract:** the article reflects the issues of creating educational and methodological support for students, foreigners studying the Uzbek language independently, developing scientific and methodological foundations for assessing knowledge, skills and abilities acquired by students, creating a system of educational tasks that serves to assess and develop skills.

**Keywords:** Independent education, in-depth training, training tasks, teaching methods, questions, exercises, tests for completing tasks and assessments

O‘zbek tilini internet orqali, darslik va qo‘llanmalar orqali mustaqil o‘rganuvchilar soni kun sayin oshib bormoqda. Shu ma’noda, o‘zbek tilini mustaqil o‘rganishda qulaylik yaratuvchi o‘quv metodik ta’minot yaratish zaurarti mavjud. Bu borada o‘quv topshiriqlari talabalarda nutqiy kompetensiyani to‘la shakllantira olishida





katta ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek tilini ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'qitilishi bilan bog'liq monografik tadqiqotlar pedagogika fanlari doktori, professor X.Muhitdinova tomonidan tizimli ravishda olib borilmoqda. Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotda, asosan, rus guruhlarida o'zbek tili o'qitish ko'zda tutilgan. Shu bois olim o'zbek tili ta'limida muayyan mazmuni ifodalovchi grammatik bilimlarni mazmuniy uzviylik va bosqichma-bosqich uzluksizlikda berilishi, nutqiy mavzularni esa shunga mos holda berib borilishi rusiyzabon o'quvchilarda o'zbekcha to'g'ri nutqning shakllanishiga va avtomatlashgan nutqiy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Buni amalga oshirish uchun o'zbek tili dasturlari va darsliklarida nutqiy mavzular va grammatik ma'lumotlar quyidagi tartibda berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: 1) muayyan fikrni ifodalashga oid mavzu; 2) grammatik mavzu; 3) nutqiy mavzu; 4) adabiy o'qish uchun material. Tajriba-sinov ishlari o'zbek tili ta'limini shu tarzda tashkil etish o'quvchi-talabalarning o'zbek tilida fikrlash doirasini kengaytirishga, ularda o'zbek tilida mustaqil ifodalay olish imkoniyatini yuzaga keltirishga, yordam berishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv uzluksiz ta'lim tilimining barcha bosqichlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ye.I. Passov o'z tadqiqotlarida "Ikkinchi til ta'limida eng muhim va murakkab muammolardan biri til va nutq materiallarini tanlash va ularni to'g'ri taqsimlash bo'lib, bunda, avvalo, o'quvchilarning yoshi, ta'lim yo'nalishini e'tiborga olgan holda grammatik minimumni tanlash va taqsimlash, ya'ni kimga nimani qachon berilishi muammosini hal qilish kerak bo'ladi", degan edi.

L. S. Vigotskiy ona tilini o'rganish pastdan yuqoriga, xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo'nalishida amalga oshirilishini ta'kidlagan edi.

Ona tili o'qitishdan farq qilgan holda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'quv topshiriqlarning asosiy qismi nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuning uchun mazkur ta'limga doir mashqlar ham turlicha bo'ladi. Jumladan, B. Lapidus ularni nutq mashqlari va til mashqlariga ajratadi, Ye.Passov esa "mashqlarni til va nutq mashqlariga bo'lish til va nutqning butunligiga ta'sir ko'rsatadi" deb hisoblaydi va shunga ko'ra u mashqlarni kommunikativ va shartli kommunikativ mashqlarga bo'linishini ta'kidlagan.

X.Muhiddinova bu boradagi turli fikrlarni o'zaro taqqoslab o'rganar bugungi





kungacha o'zbek tili ta'limida qo'llanadigan mashqlar va topshiriqlarni osondan qiyinga tamoyilida bosqichma-bosqich rivojlantirib borish, bunda rusiyzabon o'quvchitalabalarining yoshi, til xususiyati, bilim darajasi, ta'lim yo'nalishini e'tiborga olish, qaysi bosqichda, kimga, qanday mashq va topshiriqlarni berishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish ilmiy metodik jihatdan tadqiq qilinmaganini ta'kidlaydi. O'zbek tilini rus guruhlarida o'qitishda aynan qanday mashq turlaridan foydalanish, mashqlardan topshiriqlarni qanday farqlash va oliy ta'lim muassasalarida nutqiy ko'nikmalarni qanday rivojlantirib borish masalalarini ilmiy tadqiqiy jihatdan o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'quv topshiriqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish o'zbek tili darsliklari va o'quv qo'llanmalarida ham mashqlar va topshiriqlarning berilishi bilan bog'liq chalkashliklarni bartaraf etishga va o'zbek tili ta'limida nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga sharoit yaratadi. O'zbek tili o'qitish metodikasida innovatsion yondashuvlar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, til o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'ladi. Shu o'rinda G'.Hamroyevning dars jarayonida mashq va topshiriqni bir-biridan didaktik jihatdan farqlash haqidagi nazariyasiga to'xtalish joiz. O'quv topshiriqlarining o'zbek tili o'qitish amaliyotida, asosan, ikki ko'rinishi qo'llaniladi. Bular mashq va topshiriqlar. Darhaqiqat, o'zbek tili darslik va qo'llanmalarida ham takrorga asoslangan mashqlar deyarli uchramaydi. Topshiriqlar mazmuni ham xorijiy tillar o'qitish amaliyotidagi kabi ko'nikma va malakani shakllantirishga to'la ixtisoslashmagan. Mashq va topshiriqlar, umuman, o'quv topshiriqlari bilim hosil qilishdan ko'ra nutqiy kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallanishi lozim.

“Kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalariga to'xtaladigan bo'lsak, bu atamalar tilshunoslikda ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida”, ta'lim sohasida esa “kompetensiyaviy yondashuv” sifatida talqin etiladi, ta'limda natijaviylikni belgilaydigan omillardan biri sifatida qayd etilgan. Lug'atlarda bu so'zlarning ma'nolari turlicha izohlanadi: “O'zbek tilining izohli lug'ati”da kompetensiya so'ziga shunday izoh beriladi: “Kompetensiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo'lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”.<sup>18</sup> Tarjima lug'atlarida esa bu so'z quyidagicha sharhlanadi: “Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

omilkor bo‘lgan soha; 2. yur. huquq (vazifa, ish) doirasi.” ; “Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo‘lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; Kompetentn/ыу, -aya, oye, -ten, -tna – yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e’tiborli, mo‘tabar; 3) kompetensiya ga, ya’ni huquqqa ega bo‘lgan; vakolatli; Kompetentlik – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik.”

H.Muhiddinova ta’lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv ta’lim oluvchilarning o‘rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya’ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qiladi.

Masalan, o‘zbek tili o‘qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun boshlang‘ich mashg‘ulotlarda talaffuz mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda talaba, albatta, mashq jarayonida o‘zbek tilida o‘rganayotgan ma’lumotlarini o‘z ona tilisiga taqqoslaydi, qiyosiy talaffuzga tayangan holda o‘rganadi. Keyin boshqa bo‘limlar ham shu yondashuv asosida samarali o‘zlashtiriladi.

Albatta, o‘zbek tilidan mustaqil shug‘illanib zarur kompetensiyaga ega bo‘lish muayyan qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Bu borada o‘rganuvchilarni egallagan ko‘nikma va malakalarini baholovchi elektron kontent yaratish zarurati mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida tahlilga tortilgan uzluksiz ta’lim tizimida o‘quv topshiriqlar borasidagi nazariyalar mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishda asos vazifasini bajara oladi. Biroq bunday topshiriqlarni ishlab chiqishda





mustaqil o'rganuvchilarning psixologiyasi, qarashlari, imkoniyatlarini ham inobatga olish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед.ф.д-ри. дисс. автореф.– Т, ТДПИ, 2011. – 52 б.
2. Пассов Е.И. Основы методики обучения иностранным языкам. –М.: Русский язык, 1977.– С. 152
3. Выготский Л.С. Мышление и речь //Избранные психологические исследования.– М.,1956.–С. 291.
4. Лапидус Б.А. К проблеме функциональной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – М.: 1975.
5. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения. – М.–Л.: Просвещение, 1967. – С. 6–8.
6. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. ф. ном-ди дисс. автореф.– Тошкент: ТДПИ, 2011. – 52 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4–жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. -267-бет
8. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж.Высшее образование сегодня, №5. – Москва, 2003. – С.34-42.

